

## "MusuRmon"

Oliy o'quv yurtida juma kuni darsimiz  
13:00da tugaydi.

Institutimga eng yaqin masjid 20daqiqalik  
yo'l.

\*

Ustozga dars va vazifalarini tez topshirib,  
12.40da chiqsam, azonga yetib boraman.

\*

Men sizga qalbimdan chuqr joy olgan  
voqeani ma'lum qilmoqchiman.

Juma. Soat 12.30.

Ustoz dars o'tayapti. Ustoz musulmon  
(men shunday gumon qilganman). Men  
hurmat qilgan ustozlardan.

Ustoz oldiga borib, darsdan biroz ertaroq ruxsat berishini iltimos qildim. U biroz o'ylanib, sababini so'radi. Muhim uchrashuvim borligini aytdim.

- O'zi darsimiz haftada 1 marta bo'ladi. Siz esa oxirgi 2ta darsimizda ham uchrashuvim bor deb, ruxsat so'ragan edingiz. Sababini bilsam bo'ladimi? Bemalol aytavering.

Men unga masjidga borishim lozimligini ma'lum qildim. U soniyalar ichida "yondi":

- A? Jumaga? Bormaysan! Mumkunmas! Seni olib ketishadi. O'zi hamma narsa dindorlardan chiqadi. Biz ham musuRmonmiz, lekin bu yer ilm dargohi. Bu yerda unday narsalarga o'rinn yo'q. Talabamisan? Darsingni qil. Aks holda

kuratorlarga aytaman...

U to'xtamay haqoratomuz gaplarni  
gapisardi. Ko'z oldimda esa men hurmat  
qilgan ustozning "ранг"и pasayib borardi.  
A'lal-oqibat men uning musulmon  
ekanligiga ham shubha bilan qaray  
bosladim.

Biroz tikilib turdim.  
Indamay chiqib ketdim...

U esa ortimdan hali ham baqirib  
nimalarnidir gapisardi. Boshqa talabalar  
esa jim tomosha qilishardi xolos...

\*

Yana juma kuni. Yana o'sha fan.  
Ammo bu safar ustozning оrniga rus  
millatiga mansub erkak kishi dars o'tayapti.

Soat millari menga kerakli vaqtga  
yaqinlashdi.

Nima qilishga hayronman. Ruxsat  
so'rasam, bermaydi. To'g'risini aytsam -  
tushunmaydi.

Musulmon shunchalar qo'rqediku, bu  
nasroniy qo'rqlaymaydimi, degan hayollar  
ham boshim uzra aylanardi.

O'ylay-o'ylay, rostini aytib, darsdan ruxsat  
so'rashga jazm qildim.

U soatiga qaradi. Ruxsat berdi.

Hayratimni yashirib, narsalarimni  
yig'ishtirayabman. U:

\*

Eshikka yaqinlashgan edim, u rus tilida:

"Meni o'g'lim Amerikada o'qiydi. Uzoq mamlakat. Iltimos, o'g'limni ham duo qil, bag'rimga qaytsin. Dinimiz har xil bo'lsa ham duolarimiz bir Zotga boradi-ku axir!" dedi.

\*

Masjid tomon ketar ekanman, ko'nglim zil bo'ldi.

Umri davomida musulmonlikni da'vo qilgan inson o'z dinidan shunchalik qo'rqaqdi, or qiladi. Ammo Islomning mohiyati va arkonlarini umuman bilmagan boshqa din vakili esa dindorlarni shu qadar hurmat qiladi.

Qizig'i, ular diniy bag'rikenglik, tolerantlik haqida ovoz kerib baqirmaydilar. Bunday osmono'par gaplarni aynan dinga

qarshi bo'lgan insonlar gapiradi.

\*

Haligi "musuRmon" domlaga Alloh hidoyat bersin.

\*

2018 - bahor

eslatdim

@pdf\_book\_uz